



**AXBOROTLARNING TALABA YOSHLAR RUHIYATGA
SALBIY TA'SIRINING IJTIMOY - PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Qahhorova Gulhayo Baxtiyor qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya yo`nalishi magistranti

Ramazonov Jahongir Djalolovich

Ilmiy rahbar

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-april 2023 yil

Ma'qullandi: 15-april 2023 yil

Nashr qilindi: 19-april 2023 yil

KEY WORDS

Globallashuv, "kurralashuv" umumbashariy qadriyat, ma'naviy ahloqiy qadriyat, tahdidlar, axborot oqimi.

ABSTRACT

Ma'lumki, bugungi kunda globallashuvning avj olishi millat "chegaralarini" buzib yubormoqda, ommaviy ma'naviyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Buning natijasida har bir millatga xos bo'lgan urf-odat, an'ana, qadriyatlar o'z ahamiyatini "yo'qota" borish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma'naviy qashshoqlashuvi sodir bo'lishiga, ularning o'zligini anglamaydigan manqurtlariga olib keluvchi taxdidlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, yoshlar, talabalar buyuk o'zgarishlarni amalga oshiruvchi hamda tashuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Barcha davrlarda bolalar va yoshlarga aholining tarbiyalanuvchi qatlami sifatida qarab kelingan. Shu bois, Vatanga e'tiqodi shakllangan, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, yoshlarni o'zga axborot oqimlarining ta'siriga tushib qolish extimoli kam bo'ladi. Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda, milliy va umumbashariy ma'naviy ahloqiy qadriyatlar insoniyat hayotida har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz biz uchun faqat merosgina emas, balki insoniyat ma'naviy hayoti borasida katta o'rin olishi mumkin bo'lgan ma'naviy boylik hamdir. Globallashuv - lotincha "glob" so'zidan olingan bo'lib, "kurralashuv" deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer qurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyorida huddi bir sharga, qurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Shuni aytish kerakki, vaqt o'tishi bilan globallashuv jarayonining o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga bir qator salbiy jixatlari ham namoyon bo'la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga nisbatan sezilari darajada o'sishi shuni ko'rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh, salbiy, xoh ijobiy voqea-xodisalar bo'lsin u dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning oqibatida, mintaq xavfsizligi va barqarorligida jiddiy tahdidlar vujudga keladi. Vaziyatning keskinlashuvi tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, shuningdek, an'anaviy tahdidlar bilan o'zaro qo'shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o'zaro bog'liqligi o'sib borishi milliy mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi, shuningdek, ko'p ming-ming

mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusmlari jahon bo'ylab borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o'z-o'zidan faol ijtimoiy- iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Globallashuv yoshlar ma'naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi [3]:

- birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy taxdid;
- ikkinchisi yoshlar ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan mafkuraviy immunitet masalalaridir;

Gap shundaki, axborot oqimi o'z moxiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsad sari puxta yo'naltirilganligiga bog'liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy ximoya tizimining mukammallik omiliga bog'liq.

To'g'ri, avvalo hammada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko'nikmalarini xosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanganiga qadar davom etadi. Xususan, bunda ma'lum bir yoshning ko'p kitob o'qishi, o'z mamlakati tarixini o'rganishi, urf-odatlarga nisbatan xurmat ruhida tarbiya topishi, bir so'z bilan aytganda, unda milliy e'tiqod-milliy faxr shakllanishi muhim o'rin tutadi. O'z millati qadriyatlarini qadrlagan, o'z tarixini bilgan, Vatanga e'tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta'siriga tushib qolish ehtimoli kam bo'ladi. Chunki bunday yoshlarda o'ziga xos psixologiya va masalaga o'ziga xos yondashuv paydo bo'lgan bo'ladi. U har qanday axborot zamirida ma'lum bir maqsadni o'rgana boshlaydi [4].

Bugungi kunda yoshlarimiz - turli xil G'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli, ma'naviyatga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkin, istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan o'z axborot immunitetlari shakllanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Zero yoshlar mustaqil Vatanimiz taraqqiyotining poydevoridir. Bugungi ta'lim tizimining vazifasi yosh avlodni har tomonlama komil inson sifatidat tarbiyalash, ularning iqtidori, did va saviyasini yanada yuksaltirish, o'z Vatani, xalqi manfaati uchun xizmat qiladigan, fuqarolik pozitsiyasiga ega, zamonaviy ilm-fan sohiblari qilib yetishtirishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2- jild, T: «O'zbekiston, 2018.-508b.
2. Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari: Ilmiy ishlar to'plami.- T.: "Ta'lim nashryoti" 2021 y
3. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T.

10. – №. 4. – S. 559-567.

4. Boltaboeva U. Nutq san'atining o'ziga xos xususiyatlari: muammo va yechimlar //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2).

5. Usmonov Sh. SAHNADA TASHQI QIYoFAGA AKTYoRNING MUNOSABATI //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.

6. Dehqonov R., Tursunova G., Abdunazarov Z. Pedagogical aproaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of higher education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 3. – S. 91-95.

